| O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA FISKAL SIYOSATDAN FOYDALANISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....                                        | 481 |
| <b>Azamatov Po'lat To'liqunovich</b>                                                                                                                  |     |
| CHIZMA GEOMETRIYA FANINI O'QITISHDA VIRTUAL MUHIT TUSHUNCHASI VA UNING FAZOVIY TASAVVURNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI .....                              | 487 |
| <b>Yusubjonov Jonibek Farxod o'g'li</b>                                                                                                               |     |
| ANDIJON SHAHRI BOBURSHOH KO'CHASIDA TRANSPORT VOSITALARINING XAVFSIZ HARAKATINI TASHKIL ETISH.....                                                    | 495 |
| <b>Meliqo'ziyev Abdulaziz Rasuljon o'g'li</b>                                                                                                         |     |
| CHAQIQ TOSH ISHLAB CHIQARISH TANNARXINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI .....                                                                                | 501 |
| <b>Qosimov Karimjon, Zuhritdinov Alisher, Kosimova Maloxatxon, Zo'xriddinov Dilmurod, Mahammadjonov Nurmahamad</b>                                    |     |
| COMPOSITION ANALYSIS OF DEMERCAPTANIZED RESIDUAL STREAMS AND GAS CONDENSATES AS RAW MATERIALS FOR THE SYNTHESIS OF MERCAPTAN-CONTAINED ODORANTS ..... | 508 |
| <b>Tilloeva Shakhnoza Fakhritdinovna</b>                                                                                                              |     |
| QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA INNOVATSION BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH NATIJADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI.....                   | 514 |
| <b>Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li</b>                                                                                                         |     |
| KREDIT PORTFELINI BOSHQARISHNING TAMOYILLARI, USULLARI VA BAHOLASH MEZONLARI.....                                                                     | 520 |
| <b>Farxod G'afforovich</b>                                                                                                                            |     |
| TIJORAT BANKLARI KREDITLARINING MAHALLA TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI.....                                                                 | 526 |
| <b>Yodgorov Farrux G'afforovich</b>                                                                                                                   |     |
| TEMIR YO'L TRANSPORTIDA TASHILADIGAN TOVARLAR USTIDAN BOJXONA NAZORATINING TASHKILY-BOSHQARUV MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI .....            | 533 |
| <b>Berdiyev Abbas, Ergashev Qobiljon</b>                                                                                                              |     |
| TRANSPORT SOHASIDA MOLIYAVIY FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI (TOSHKENT METROPOLITENI MISOLIDA).....                                        | 540 |
| <b>Xamrayev Jamshid Panjiyevich</b>                                                                                                                   |     |



# TRANSPORT SOHASIDA MOLIYAVIY FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI (TOSHKENT METROPOLITENI MISOLIDA)

**Xamrayev Jamshid Panjiyevich**

Toshkent kimyo-texnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi,

“Toshkent metropoliteni” AJ **Iqtisod, moliya va mehnatni tashkil etish xizmati** boshlig'i o'rinbosari

E-mail: [nft@tashmetro.uz](mailto:nft@tashmetro.uz)

**Annotatsiya.** Transport sohasida moliyaviy faoliyatning iqtisodiy mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari hamda uning samaradorligini oshirish yo'llari Toshkent metropoliteni misolida tadqiq etilgan. Transport korxonalari moliyasining boshqa tarmoqlar moliyasidan farqlanuvchi jihatlari, shahar jamoat transporti moliyaviy resurslarining shakllanish manbalari hamda metropoliten moliyaviy faoliyatining asosiy xususiyatlari, jumladan, yuqori kapital sig'imi, ekspluatatsiya xarajatlarning yuqoriligi, tarif daromadlarining cheklanganligi, notarif daromadlar ahamiyatining ortib borishi, davlat ishtirokining yuqori darajasi va raqamli moliyaviy boshqaruv tizimlarining rivojlanishi tizimli tahlil qilingan. Xorijiy, MDH va O'zbekiston iqtisodchi olimlarining nazariy qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, metropoliten moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan mualliflik yondashuvlari hamda amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** transport moliyasi, moliyaviy samaradorlik, metropoliten, tarif siyosati, subsidiya, notarif daromadlar, davlat-xususiy sheriklik, investitsiyalar, raqamli to'lov tizimlari, moliyaviy barqarorlik.

**Abstract.** The economic essence, distinctive characteristics, and approaches to improving the efficiency of financial activities in the transport sector are examined using the Tashkent Metro as a case study. The study analyzes the specific features that distinguish the financial management of transport enterprises from other sectors, identifies the main sources of financial resources in urban public transport, and systematically evaluates the key characteristics of metro financial operations, including high capital intensity, substantial operating costs, limited tariff revenues, the growing importance of non-fare revenues, a high degree of state participation, and the development of digital financial management systems. Based on a comparative analysis of the theoretical approaches proposed by foreign, CIS, and Uzbek economists, the study presents the author's conceptual approaches and practical recommendations for improving the efficiency of financial activities in metro systems.

**Keywords:** transport finance, financial efficiency, metro system, tariff policy, subsidy, non-fare revenues, public-private partnership, investment, digital payment systems, financial sustainability.

**Аннотация.** Исследованы экономическая сущность, специфические особенности и направления повышения эффективности финансовой деятельности в транспортной сфере на примере Ташкентского метрополитена. Проанализированы особенности финансов транспортных предприятий по сравнению с другими отраслями, источники формирования финансовых ресурсов городского общественного транспорта, а также ключевые характеристики финансовой деятельности метрополитена, включая высокую капиталоемкость, значительные эксплуатационные расходы, ограниченность тарифных доходов, возрастающую роль нетарифных доходов, высокий уровень государственного участия и развитие цифровых систем финансового управления. На основе сравнительного анализа теоретических подходов зарубежных, ученых стран СНГ и Узбекистана представлены авторские подходы и практические рекомендации, направленные на повышение эффективности финансовой деятельности метрополитена.

**Ключевые слова:** транспортные финансы, финансовая эффективность, метрополитен, тарифная политика, субсидии, нетарифные доходы, государственно-частное партнёрство, инвестиции, цифровые платёжные системы, финансовая устойчивость.

## KIRISH

Mamlakatimizda iqtisodiyot va savdo aloqalari yildan-yilga rivojlanib, aholi daromadlari hamda hududlarning turizm salohiyati ortib bormoqda. Prezidentimiz temir yo'l va aviatsiya sohasidagi davlat kompaniyalarida transformatsiya jarayonlariga bag'ishlangan taqdimotda: “2030-yilga borib, yalpi ichki mahsulotimiz hajmini 200 milliard dollarga yetkazish maqsadini qo'ydik. Shuning uchun transport «arteriya»lariga alohida ahamiyat



berishimiz kerak”, – deb ta’kidladi<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, transport sohasi milliy iqtisodiyotning strategik ahamiyatga ega tarmoqlaridan biri bo’lib, uning barqaror va samarali faoliyat yuritishi mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish hamda aholi va tadbirkorlik sub’yektlarining transport xizmatlariga bo’lgan ehtiyojini to’liq qondirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Transport sohasida moliyaviy faoliyat transport xizmatlarini ko’rsatish, infratuzilmani rivojlantirish va tizimning barqaror ishlashini ta’minlash uchun pul mablag’lari fondlarini shakllantirish, taqsimlash hamda ulardan foydalanish jarayonidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida transport korxonalarining moliyaviy faoliyati nafaqat xizmat ko’rsatish jarayonini moliyalashtirish, balki investitsiyalarni jalb qilish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, resurslardan oqilona foydalanish hamda raqobat muhitida ustunlikka erishish kabi vazifalarni ham qamrab oladi. Shu bois transport sohasida, xususan, Toshkent metropoliteni faoliyatida moliyaviy munosabatlarning iqtisodiy mazmunini chuqur tadqiq etish va moliyaviy samaradorlikni oshirish yo’llarini asoslash dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Transport sohasida moliyaviy faoliyat masalalari xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. J. Gómez-Ibáñez o’zining *Regulating Infrastructure* asarida metro va temir yo’l kabi tabiiy monopoliya xususiyatiga ega infratuzilma tarmoqlarida tariflarni tartibga solish, davlat va xususiy sektor o’rtasidagi shartnomaviy munosabatlar hamda subsidiyalash mexanizmlarining moliyaviy samaradorlikka ta’sirini asoslab bergan [3]. E. Verhoef transport xarajatlarini iqtisodiy baholash, tariflarni ijtimoiy xarajatlar asosida belgilash hamda transportda narx siyosatining resurslardan samarali foydalanishga ta’sirini tadqiq etgan [4].

C. Winston ilmiy izlanishlarida transport korxonalarida raqobat muhitini shakllantirish, davlat tomonidan tartibga solishning samaradorligi va uning moliyaviy natijalarga ta’siri masalalarini o’rgangan [5]. A. Smith esa temir yo’l transporti xarajatlari, samaradorlik va benchmarking usullari bo’yicha tadqiqotlar olib borib, transport korxonalari faoliyatini qiyosiy baholashning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqqan [6]. Mazkur yondashuvlar metropoliten faoliyatida xarajatlarni boshqarish hamda samaradorlikni xalqaro mezonlar asosida baholashda muhim nazariy asos bo’lib xizmat qiladi.

MDH olimlaridan N. P. Teryoshina transport iqtisodiyoti va temir yo’llarda xarajatlarni boshqarish hamda tarif siyosatini takomillashtirish masalalarini tadqiq etgan [7]. V. G. Galaburda yagona transport tizimi doirasida transport turlarining o’zaro hamkorligi, yuk va yo’lovchi tashish samaradorligini oshirishning iqtisodiy mexanizmlarini asoslagan [8]. O’zbekistonlik olimlardan Sh. Sh. Shodmonov iqtisodiyot nazariyasi doirasida xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagi o’rni va qiymat yaratish jarayonidagi ishtirokini yoritgan [9], A. Vahobov esa davlat moliyasi, budget siyosati hamda investitsiyalarni moliyalashtirish masalalarini tadqiq etib, davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy qo’llab-quvvatlash mexanizmlarini asoslagan [10]. Q. Haqberdiyev temir yo’l transportini moliyalashtirish va investitsiya jarayonlarini takomillashtirish yo’nalishida ilmiy izlanishlar olib borgan.

Shuningdek, L. N. Krasavina ilmiy izlanishlarida transport sohasini moliyalashtirish mexanizmlari, valyuta-kredit munosabatlari va investitsiya oqimlarini boshqarish masalalariga e’tibor qaratgan. V. A. Persianov transport tizimlarini iqtisodiy rivojlantirish, A. G. Kudryavtsev transport logistikasi va iqtisodiyoti, M. N. Lapidus esa temir yo’l iqtisodiyoti hamda raqamli transformatsiya yo’nalishlarida tadqiqotlar olib borgan. Mazkur ilmiy maktab vakillarining ishlari transport korxonalarida xarajatlar hisobini tashkil etish, tarif siyosatini asoslash hamda moliyaviy rejalashtirishni takomillashtirishning uslubiy asoslarini boyitgan.

Yuqoridagi ilmiy qarashlarni umumlashtirgan holda shuni ta’kidlash lozimki, transport sohasida moliyaviy faoliyat masalalari yetarli darajada o’rganilgan. Shu bilan birga, metropoliten kabi kapital sig’imi yuqori bo’lgan shahar transporti korxonalarida moliyaviy samaradorlikni oshirish masalalari, xususan, Toshkent metropoliteni misolida kompleks yondashuv asosida tadqiq etilishi ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur holat tadqiqot mavzusining dolzarbligi, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, transport sohasini rivojlantirishga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar hamda mavzuga oid xorijiy, MDH va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy va tanqidiy tahlil qilindi. Tadqiqot davomida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, tarkibiy tahlil, guruhlash va grafik

<sup>1</sup> Prezident Shavkat Mirziyoyev 2024 yil 26 noyabr kuni temir yo’l va aviatsiya sohasidagi davlat kompaniyalarida transformatsiya jarayonlarining borishiga oid taqdimot bilan tanishdi.

usullaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Transport sohasida moliyaviy faoliyatning iqtisodiy mazmuni bir qator muhim jihatlarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, transport ishlab chiqarish sohasi bo'lsa-da, yangi moddiy buyum yaratmaydi — uning mahsuloti yo'lovchi va yuklarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish jarayonining o'zidir. Ikkinchidan, transport xizmatini oldindan ishlab chiqarib, omborda saqlab bo'lmaydi, shu sababli moliyaviy tushumlar bevosita xizmat ko'rsatilgan vaqtda shakllanadi. Uchinchidan, yuk tashish jarayonida transport xarajatlari tashilayotgan tovarning tannarxini oshiradi va uning yakuniy iste'mol qiymatiga qo'shiladi. Mazkur xususiyatlar transport korxonalarida moliyaviy oqimlarni rejalashtirish va boshqarishga alohida yondashuvni taqozo etadi.

Transport milliy iqtisodiyotning "qon tomiri" vazifasini bajarib, ishlab chiqarish, savdo va iste'mol jarayonlarini yaxlit tizimga birlashtiradi. Transport xizmatlari yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda bevosita ishtirok etadi, hududlarning iqtisodiy integratsiyasini ta'minlaydi hamda mehnat resurslarining hududiy harakatchanligini oshiradi. Yirik shaharlarda esa jamoat transporti, ayniqsa, metropoliten aholining kundalik harakatlanish ehtiyojini qondirish, yo'l tirbandliklarini kamaytirish va ekologik muhitni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Shu bois metropoliten faoliyatining moliyaviy samaradorligi nafaqat korxona darajasidagi, balki butun shahar iqtisodiyoti miqyosidagi masala sifatida qaralishi lozim.


Moliyaviy faoliyat iqtisodiy kategoriya sifatida yalpi ichki mahsulot va milliy daromadni shakllantirish, taqsimlash hamda qayta taqsimlash jarayonida yuzaga keladigan pul munosabatlari tizimini ifodalaydi. Korxona darajasida esa moliyaviy faoliyat pul mablag'larini shakllantirish, ulardan samarali foydalanish, moliyaviy natijalarni boshqarish, likvidlik va to'lov qobiliyatini ta'minlash, investitsiya va innovatsion faoliyatni moliyalashtirish bilan bog'liq munosabatlarni o'z ichiga oladi. Transport korxonalari moliyasi transport xizmatlarini ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmui bo'lib, u transport tizimining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlovchi muhim iqtisodiy mexanizm hisoblanadi.

Transport sohasi moliyasi boshqa tarmoqlardan quyidagi jihatlari bilan farqlanadi: asosiy fondlarning yuqori qiymati va kapital sig'imdorligi; doimiy xarajatlar ulushining kattaligi; investitsiyalarning uzoq muddatda qoplanishi; daromadlarning mavsumiy va ijtimoiy omillarga bog'liqligi hamda davlat tomonidan tartibga solinadigan tariflarning mavjudligi. Shahar jamoat transporti, xususan, metropoliten faoliyatida mazkur xususiyatlar yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Transport tizimining moliyaviy faoliyati bir qator o'ziga xos jihatlarga ega. Avvalo, tariflar davlat tomonidan ijtimoiy siyosat doirasida tartibga solinishi sababli korxonalarning narx belgilash imkoniyatlari muayyan darajada cheklangan bo'lib, daromadlar hajmi ko'p jihatdan ma'muriy qarorlarga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, yo'lovchilar oqimining kun, hafta va mavsum davomida notekis taqsimlanishi daromadlarning o'zgaruvchanligini keltirib chiqaradi. Xarajatlarning asosiy qismi esa doimiy xususiyatga ega bo'lib, tashish hajmidan qat'i nazar amalga oshiriladi. Bundan tashqari, transport xizmatlarining ijtimoiy funksiyasi — aholining harakatlanish huquqini ta'minlash — tijorat samaradorligi bilan ijtimoiy maqsadlar o'rtasidagi muvozanatni saqlashni taqozo etadi. Aynan shu jihatlarda transport korxonalarida moliyaviy rejalashtirish tizimini yuqori darajada tashkil etishni talab qiladi.

Shahar jamoat transporti moliyaviy resurslarining shakllanish manbalari 1-rasmda keltirilgan.






### 1-rasm. Shahar jamoat transporti moliyaviy resurslarining shakllanish manbalari<sup>2</sup>

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, shahar jamoat transportining moliyaviy resurslari beshta asosiy manba hisobiga shakllanadi. Tarif tushumlari asosiy manba bo'lsa-da, ijtimoiy ahamiyatga ega tariflar sharoitida ular ekspluatatsiya xarajatlarini to'liq qoplash imkonini har doim ham bermaydi. Shu bois byudjet subsidiyalari, notarif daromadlar — reklama, ijara va tijorat xizmatlaridan olinadigan tushumlar, investitsiya kreditlari hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim qo'shimcha manbalari hisoblanadi. Shahar jamoat transporti moliyaviy boshqaruvining asosiy vazifalari sifatida daromadlar va xarajatlarni muvozanatlashtirish, subsidiyalardan maqsadli foydalanish, investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish hamda moliyaviy risklarni boshqarishni ko'rsatish mumkin.

Toshkent metropoliteni misolida olib borilgan tadqiqotlar metropoliten moliyaviy faoliyatining oltita o'ziga xos xususiyatini ajratib ko'rsatish imkonini berdi (2-rasm).



### 2-rasm. Metropoliten moliyaviy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari<sup>3</sup>

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>3</sup> Muallif ishlanmasi.

Birinchi xususiyat — yuqori kapital sig'imidir. Metropoliteni qurish va kengaytirish yirik kapital qo'yilmalarni talab etadi. Xususan, tunnellar qurilishi, stansiyalar, harakat tarkibi, signalizatsiya va energetika tizimlarini barpo etish uzoq muddatli hamda katta hajmdagi investitsiyalarni talab qiladi. Ikkinchi xususiyat — ekspluatatsiya xarajatlarining yuqoriligidir. Elektr energiyasi, harakat tarkibiga texnik xizmat ko'rsatish, xavfsizlik tizimlarini saqlash hamda malakali xodimlar mehnatiga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlar doimiy xususiyatga ega bo'lib, yo'lovchilar oqimidan qat'i nazar amalga oshiriladi. Uchinchi xususiyat — daromadlarning muayyan darajada cheklanganligidir. Tariflar ijtimoiy siyosat doirasida davlat tomonidan tartibga solinishi sababli tarif tushumlari har doim ham xarajatlarni to'liq qoplash imkonini bermaydi.

Jahon amaliyoti ham mazkur xulosani tasdiqlaydi. Dunyoning aksariyat yirik shaharlarida metropolitenlarning tarif tushumlari ekspluatatsiya xarajatlarni to'liq qoplash uchun yetarli bo'lmaydi, moliyaviy barqarorlik esa davlat subsidiyalari hamda notarif daromadlar hisobiga ta'minlanadi. Shu sababli rivojlangan mamlakatlar metropolitenlari daromadlar tarkibini diversifikatsiya qilish, jumladan, stansiyalar va vagonlarda reklama joylashtirish, savdo maydonlarini ijaraga berish hamda ko'chmas mulkni rivojlantirish loyihalarida ishtirok etish orqali tarif tushumlariga bog'liqlikni izchil kamaytirib bormoqda. Mazkur tajriba Toshkent metropoliteni uchun ham muhim yo'naltiruvchi ahamiyatga ega.

To'rtinchi xususiyat — notarif daromadlar ahamiyatining ortib borishidir. Jahon amaliyotida metropolitenlar reklama joylashtirish, savdo maydonlarini ijaraga berish va telekommunikatsiya infratuzilmasidan foydalanish kabi qo'shimcha daromad manbalarini faol rivojlantirmoqda. Beshinchi xususiyat — davlat ishtirokining yuqori darajasidir. Metropoliten strategik va ijtimoiy ahamiyatga ega obyekt sifatida davlat tomonidan subsidiyalanadi hamda investitsiya dasturlari orqali qo'llab-quvvatlanadi. Oltinchi xususiyat — raqamli moliyaviy boshqaruv tizimlarining rivojlanishidir. Elektron to'lov tizimlari, transport kartalari va QR to'lovlarning joriy etilishi daromadlarni hisobga olish shaffofligini oshirib, moliyaviy rejalashtirish sifatini yaxshilamoqda.

Toshkent metropolitenida ham so'nggi yillarda raqamli to'lov vositalari — transport kartalari, bank kartalari orqali kontaktsiz to'lovlar hamda QR-kod asosidagi to'lovlar keng joriy etildi. Bu, bir tomondan, yo'lovchilar uchun qulaylik yaratib, yo'lovchilar oqimining oshishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, daromadlarning to'liq va shaffof hisobga olinishini ta'minlab, naqd pul aylanmasi bilan bog'liq risklarni kamaytiradi. Shuningdek, raqamli tizimlar orqali to'planadigan ma'lumotlar yo'lovchilar oqimini soatlar, kunlar va stansiyalar kesimida tahlil qilish hamda shu asosda harakat jadvali va xarajatlarni optimallashtirish imkonini beradi. Xorijiy va mahalliy olimlarning transport moliyasi bo'yicha asosiy ilmiy yo'nalishlari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

#### 1-jadval

#### Transport sohasida moliyaviy faoliyat bo'yicha ilmiy yondashuvlarning qiyosiy tavsifi<sup>4</sup>

| Olimlar                                       | Ilmiy yondashuvning asosiy mazmuni                                                                                         |
|-----------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| J. Gómez-Ibáñez                               | Infratuzilma tarmoqlarida tariflarni tartibga solish, davlat-xususiy sheriklik shartnomalari va subsidiyalash mexanizmlari |
| E. Verhoef                                    | Transport xarajatlarini iqtisodiy baholash hamda tariflarni ijtimoiy xarajatlar asosida belgilash                          |
| C. Winston                                    | Transport sohasida raqobat muhitini shakllantirish va davlat tomonidan tartibga solish samaradorligi                       |
| A. Smith                                      | Temir yo'l xarajatlari, samaradorlik va benchmarking usullari asosida qiyosiy baholash                                     |
| N. P. Teryoshina, V. G. Galaburda             | Transport iqtisodiyoti, xarajatlarni boshqarish va yagona transport tizimi samaradorligi                                   |
| A. Vahobov, Sh. Sh. Shodmonov, Q. Haqberdiyev | Davlat moliyasi, budget siyosati, xizmatlar sohasi iqtisodiyoti hamda transportni moliyalashtirish mexanizmlari            |

Transport korxonalari o'z faoliyatini asosan quyidagi manbalar hisobidan moliyalashtiradi: xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan daromadlar, budget subsidiyalari va transfertlar, bank kreditlari hamda obligatsiya zayomlari, xalqaro moliya institutlarining maqsadli kreditlari, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik doirasida jalb etilgan xususiy investitsiyalar. Zamonaviy iqtisodiyotda davlat-xususiy sheriklik (Public-Private Partnership) mexanizmlarining keng qo'llanilishi moliyaviy resurslarni diversifikatsiya qilish imkonini bermoqda. Mazkur mexanizm orqali davlat budjeti yukini maqbullashtirish hamda xususiy kapitalni transport infratuzilmasiga jalb qilish imkoniyatlari kengaymoqda.

Shahar jamoat transporti moliyaviy boshqaruvining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash; budget subsidiyalaridan maqsadli va samarali foydalanish; tarif siyosatini ijtimoiy himoya talablari bilan uyg'unlashtirish; investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalarini optimallashtirish; moliyaviy risklarni aniqlash va boshqarish hamda moliyaviy hisobot va nazorat tizimining shaffofligini ta'minlash. Mazkur vazifalarning kompleks hal etilishi transport

4 Muallif ishlanmasi.



korxonasining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va xizmatlar sifatini izchil oshirishga xizmat qiladi.

Transport tashkilotlari moliyaviy barqarorligining muhim ko'rsatkichlaridan biri likvidlik va to'lov qobiliyatidir. Korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishi, aylanma mablag'larning yetarli darajasini saqlashi hamda kreditorlik qarzlari samarali boshqarishi uning bozordagi raqobatbardoshligini belgilaydi va investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. O'zbekistonda transport sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar — temir yo'l, avtomobil, metro, aviatsiya va logistika sohalarida investitsiya dasturlarining amalga oshirilishi, raqamli boshqaruv tizimlarining joriy etilishi hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning kengayishi — transport tashkilotlarining moliyaviy salohiyatini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, transport tashkilotlarida moliyaviy rejalashtirishning zamonaviy usullarini qo'llash — budjetlashtirish, xarajatlar markazlari bo'yicha hisob yuritish, investitsiya loyihalarini moliyaviy baholash (sof joriy qiymat, ichki daromadlilik me'yori) hamda ssenariy tahlili — boshqaruv qarorlarining asoslanganlik darajasini oshiradi. Metropoliten kabi yirik infratuzilma korxonalarida moliyaviy rejalashtirish uzoq muddatli investitsiya sikllari bilan uyg'unlashtirilishi, ya'ni joriy moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda 10–15-yillik istiqboldagi kapital ta'mirlash, harakat tarkibini yangilash va liniyalarni kengaytirish xarajatlari ham hisobga olinishi lozim. Aynan shunday strategik yondashuv moliyaviy resurslarning uzluksizligini hamda investitsiya dasturlarining barqaror moliyalashtirilishini ta'minlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, transport sohasida moliyaviy faoliyat milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim iqtisodiy kategoriya bo'lib, uning asosiy mazmuni moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash va samarali boshqarish orqali transport xizmatlarining uzluksizligini ta'minlashdan iborat. Transport sohasining kapital sig'imdorligi, yuqori doimiy xarajatlari, investitsiyalarga bo'lgan ehtiyoji, uzoq muddatli moliyalashtirish talablari hamda yuqori moliyaviy risklari mazkur tarmoq moliyaviy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

Toshkent metropoliteni misolida o'tkazilgan tahlil metropoliten moliyaviy faoliyatining oltita asosiy xususiyati — yuqori kapital sig'imi, ekspluatatsiya xarajatlarining yuqoriligi, tarif daromadlarining cheklanganligi, notarif daromadlar ahamiyatining ortib borishi, davlat ishtirokining yuqori darajasi hamda raqamli moliyaviy boshqaruv tizimlarining rivojlanishi — uning moliyaviy strategiyasini belgilovchi muhim omillar ekanligini ko'rsatdi. Metropoliten moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, notarif daromadlarni diversifikatsiya qilish, ya'ni stansiyalarda reklama maydonlarini raqobatli asosda joylashtirish, savdo va xizmat ko'rsatish maydonlarini ijaraga berish hamda telekommunikatsiya infratuzilmasidan tijorat maqsadlarida foydalanish orqali tarif tushumlariga bog'liqlikni kamaytirish lozim.

Ikkinchidan, tarif siyosatini takomillashtirish, ya'ni yo'lovchilar oqimi tahlili asosida moslashuvchan tarif tizimlarini (vaqt bo'yicha differensiyalangan tariflar, abonement va chegirma dasturlari) joriy etish hamda ijtimoiy imtiyozlarni manzilli subsidiyalash mexanizmiga bosqichma-bosqich o'tkazish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, ya'ni yangi liniyalar qurilishi, stansiyalarni modernizatsiya qilish va harakat tarkibini yangilash loyihalariga xususiy kapitalni jalb qilish orqali budjet yukini maqbullashtirish zarur.

To'rtinchidan, xarajatlarni boshqarish tizimini takomillashtirish, ya'ni energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, texnik xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirish hamda xalqaro benchmarking usullari asosida samaradorlikni muntazam baholab borish maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, raqamli moliyaviy boshqaruvni rivojlantirish, ya'ni elektron to'lov tizimlarini yanada kengaytirish, daromadlar monitoringining avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etish hamda moliyaviy rejalashtirishda katta ma'lumotlar tahlilidan foydalanishni kengaytirish lozim.

Ushbu takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi Toshkent metropoliteni moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirishga, davlat resurslaridan oqilona foydalanishga hamda transport xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF–60-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. Gómez-Ibáñez J. A. *Regulating Infrastructure: Monopoly, Contracts, and Discretion*. – Cambridge : Harvard University Press, 2003. – 448 p.
3. Verhoef E. *The Economics of Regulating Road Transport*. – Cheltenham : Edward Elgar Publishing, 1996. – 272 p.
4. Winston C. *Government Failure versus Market Failure: Microeconomic Policy Research and Government Performance*.



- Washington, DC : Brookings Institution Press, 2006. – 130 p.
5. Smith A. S. J. The Application of Stochastic Frontier Panel Models in Economic Regulation: Experience from the European Rail Sector // *Transportation Research Part E: Logistics and Transportation Review*. – 2012. – Vol. 48, No. 2. – P. 503–515.
  6. Терёшина Н. П. и др. *Экономика железнодорожного транспорта*. – М. : УМЦ ЖДТ, 2012. – 536 с.
  7. Галабурда В. Г. *Единая транспортная система*. – М. : Транспорт, 1996. – 295 с.
  8. Shodmonov Sh. Sh., G'afurov U. V. *Iqtisodiyot nazariyasi : darslik*. – T. : Iqtisod-Moliya, 2010. – 728 b.
  9. Vahobov A. V., Malikov T. S. *Moliya : darslik*. – T. : Noshir, 2012. – 712 b.



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

## **2026. № 7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)